
Qo'shtepa yoshlari sektor rahbarlari e'tiborida

Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilayotgan sayyor qabullarda yoshlar tomonidan kelib tushgan murojaatlar o'z vaqtida hal etilib, muammolarni tezkorlik bilan yechish choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, bugun ham 3 nafar ishsiz ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning murojaatlari ijobiy hal etildi va ularning bandligi ta'minlandi. Tuman Madaniyat markazida bo'lib o'tgan tadbirda sektor rahbarlari tomonidan yoshlarga subsidiya asosida asbob-uskuna va mehnat qurollari topshirildi.

Shuningdek tadbir davomida kuni kecha "O'zbekiston belgisi" ko'krak nishonini olgan "Xo'jaqishloq" mahallasi yoshlar yetakchisi X.Mahmudov va besh tashabbus olimpiadasi g'oliblarini taqdirlash marosimida qatnasha olmagan yoshlar tuman sektor rahbarlari tomonidan taqdirlandi.

2024-12-25 13:13:22